



ANDRONOVA MADANIYATINING VUJUDGA KELISHI VA FARG'ONA VODIYSIDA TUTGAN O'RNI

Farmanova Gulnara Komilevna

tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent, Jahon tarixi kafedrası
mudiri, Farg'ona davlat universiteti,

O'zbekiston Respublikasi, E-mail: farmanova.gulya@gmail.com

Abdug'aniyev Shukurullo Tavakkaljon o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti Magistranti

O'zbekiston Respublikasi, abduganiyevshukurullo22@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14684513>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 15-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 18-yanvar 2025 yil

*Yevroosiyo, Andronova, Chernikov,
kvadrat, qabriston, chorvachilik,
kulolchilik, yodgorliklar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Andronova madaniyatining vujudga kelishi hamda Farg'ona vodiysida tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi. Andronova madaniyatining ishlab chiqarish bilan bog'liq hayotiga doir ma'lumotlar ham keltiriladi. Maqola asosan arxeoetnologik usul orqali yoritilgan.

KIRISH

Miloddan avvalgi II ming yillikda O'rta Osiyoning shimolida joylashgan Yevroosiyo dashtlarida ikkita tarixiy-madaniy jamoalar, g'arbda Yog'ochband (srubnoy), sharqda esa Andronova madaniyati sohiblari yashaganlar. Quyi Volgadan sharqqa tomon cho'zilgan dashtlarda yashagan bronza davri qabilalari ilmiy adabiyotlarda Andronova madaniyati sohiblari deb yuritilib, bu madaniyatga oid yodgorlikni birinchi bor 1914-yilda Ya.A.Tugarinov Achinsk stansiyasi yaqinidagi Andronova qishlog'ida olib borilgan qazishmalar natijasida topgan va 1920 – 1923-yillarda S.A.Teplouxov uni "Andronova madaniyati" nomi bilan fanga kiritgan [12; 391].

Andronova madaniyati chorvadorlar madaniyati hisoblanib, juda katta hududga yoyilgan madaniyat sanaladi. Farg'ona vodiysida ushbu madaniyat vakillari o'zlarining chorvachilik, dehqonchilik va ishlab chiqarish bilan bog'liq hayot tarzlarini davom ettirdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Andronova madaniyati sohiblarining qaysi tilli xalqlar bo'lganligi to'g'rsida turli fikrlar mavjud. Jumladan, A.A.Asqarov "Andronova madaniyatining bir qism aholisi turk tilli bo'lganligi" xususidagi g'oya bilan chiqdi [3; 352].

Bu fikrni olim Abdulaxat Xo'jayev ham o'zining bir nechta asarlarida keltirib o'tadi.

Qozog'istonlik arxeolog K.M.Baybakov ham Andronova madaniyati aholisining bir qismi turk tilli bo'lgan, degan fikrni olg'a surmoqda. Bu g'oyalarning asosi Qadimgi Xitoy yilnomalarida keltirilgan yozma manbalar hisoblanadi. Ma'lumki, ushbu yilnomalarda Xitoyning shimolida miloddan avvalgi III-I ming yilliklarida "di" – "ti" – "tiyek" – "tiyeuk" – "turk" xalqlari yashaganligi asos qilib olingan [1; 680].

Ushbu ma'lumotdan ko'rinadiki Andronova madaniyati aholisining qay tilda so'zlashganligi Xitoy tarixchilarining diqqat markazidan o'rin olgan. Bu doimiy aloqalar mavjudligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda yaratilgan ko'plab adabiyotlarda Andronova madaniyati aholisini oriylar bilan bog'lash ham kuchaydi. Bu g'oya muallifi K.F.Smirnov bo'lib, uni Ye.Ye.Kuzmina qo'llagan edi. S.S.Chernikov esa Andronova madaniyatining juda keng hududda tarqalganligini inobatga olib, har xil tilli xalqqa oidligi to'g'risida yozgan. Yaqinda M.H.Isomiddinov ham S.S.Chernikovning haqligini ta'kidlab, Andronova madaniyati aholisining hammasi eron tilli bo'lmaganligi xususida yozdi [11]. Andronova madaniyati sohiblari chorva boqish, dehqonchilik qilishga qulay joylarga, ya'ni daryo sohillaridagi keng o'tloq yerlarga o'rnashdilar.

S.G.Klyashtorniyning tadqiqotlariga ko'ra, Andronova madaniyati sohiblari uncha katta bo'lmagan daryolar bo'ylaridagi manzilgohlarda yashaganlar. Olimning fikricha, bunday manzilgohlarda, dastlab, 10-20 tagacha yarim yerto'lalar mavjud bo'lgan bo'lsa, keyingi davrlarda maydoni 200-300 metr kvadrat bo'lgan turar joylar mavjud bo'lgan. Har bir turar joyda 30-50 kishidan iborat oila jamoalari istiqomat qilgan [8; 250].

Andronova madaniyati aholisi dastlab yerto'lalarda so'ngra aholi soni ortib borgandan keyin doimiy turar joylarda istiqomat qilishganligini ko'rishimiz mumkin.

B.Eshov ko'chmanchi madaniyat sohiblari bo'lgan andronovoliklarda ham davlatchilikning ko'chmanchilarga xos qandaydir shakllari mavjud bo'lganligi haqidagi taxminni ilgari suradi. Buni ularning manzilgohlaridan dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan mehnat qurollari (omoch, bronza o'roq, tosh yanchg'ich va boshqalar) topilganligi bilan izohlaydi [5; 822]. Maqolani shakllantirishda xolislik, qiyosiy tahlil va boshqa metodlardan samarali foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Andronova madaniyati yodgorliklari g'arbiy Qozog'istondan to Baykalning janubi-g'arbga cho'zilgan cho'l va dasht hududlarda uchraydi. Ular keng tarqalgan hududlar Volgadan to Mongoliyagacha, Ural tog'i janubidan to O'rta Osiyogacha cho'zilgan cho'l mintaqalari edi. Yevroosiyo mintaqalariga xos bo'lgan bu madaniyat quyi Amudaryo bo'ylarida ham tarqalgan. Bu hududga kelib o'rnashgan xalq qoldirgan moddiy madaniyat arxeologiya fanida "Tozabog'yob" madaniyati deb yuritiladi.

Qadimgi Xorazmning Tozabog'yob madaniyati chorvador qabilalari qisman, qadimgi suv havzalarining pastqam va zaxkash qismlarida ibtidoiy dehqonchilik bilan ham shug'ullanganliklarini ko'rsatadi. Mazkur madaniyatga xos bo'lgan yarim yerto'la turar joylar, qo'lda yasalgan va turli geometrik naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar Qozog'iston va Sibirning cho'l zonalaridagi sopol buyumlarga o'xshaydi. Shularga asoslanib, S.P.Tolstov tozabog'yobliklarni Andronova qabilalarining avlodlari deb hisoblagan. Arxeologik manbalarda bu davrlarga oid yodgorliklardan ikki hudud aholisi o'rtasida keskin to'qnashuvlar sodir bo'lganligiga guvohlik beruvchi ma'lumotlar uchramagan [2; 358].

Bu fikr to'g'risida ko'plab munozaralar davom etib kelmoqda va o'z yechimini topgani yo'q. Bu haqida boshqa maqolalarda ham so'z yuritganmiz.

Cho'l va dasht hududlarida yashagan qabilalarga xos yodgorliklar Farg'ona vodiysida ham bir qadar keng o'rganilgan. Bular jumlasiga, Vodil va Qaramko'l qishloqlaridan topilgan qadimgi qabristonlarni, Xo'jand viloyatidagi Qayroqqum makonlari va Dahana qabristonlarini kiritish mumkin [13; 37, 38].

Vodil yodgorligi mozar-qo'rg'on shaklidagi makon sanaladi. U yerdan 273 dan ortiq qabrlar topilgan. Qaramko'l esa vodiyni janubidagi adirliklarida joylashgan yodgorlik hisoblanadi.

Sirdaryo bo'ylarida, Farg'ona vodiysining g'arbiy qismida A.P.Okladnikov va B.A.Litvinskiylar tomonidan bronza va ilk temir davriga taalluqli Qayroqqum madaniyati topildi. Olimlar tomonidan XX asrning 50-yillari o'rtalarida taqir ustida joylashgan 60 dan ortiq makonlar o'rganildi [4; 254]. Bu makonlarda minglab sopol bo'laklari, bronza va toshdan ishlangan mehnat qurollari, hayvon suyaklari, kullarning qoldiqlari topildi.

Qayroqqumliklarning asosiy mashg'ulotlari chorvachilik bo'lsa-da, qabilalar xo'jaligida dehqonchilik ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Turar joy qoldiqlari, tosh o'choqlar, jez va misdan yasalgan ro'zg'or buyumlari va jangovar qurollar, sopol idishlar, bolta, pichoq, tesha, o'q-yoylar, paykonlar, qarmoqlarning ko'plab topilishi aholining dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullanganliklaridan dalolat beradi [17; 417]. Shu bilan birga, aholining Farg'onadagi Chust madaniyati va janubdagi dehqonchilik madaniyatlari bilan mustahkam aloqada bo'lganligi kuzatiladi.

Chorvachilikda hayvonlarning tarkibi turlicha bo'lib, poda, asosan, andronovaliklarga o'xshab yirik va mayda shoxli hayvonlardan iborat bo'lgan. Chorvada ot muhim o'rin egallab, transport vazifasini bajargan [10; 90, 92]. Bu madaniyatda chorvachilik nasosiy o'rinda turadi. Aholining tirikchilik manbayi ham chorvachilik mahsulotlari bo'lgan.

Kulolchilikda sopol idishlar qo'lda (lepnaya) yasali, dag'al ishlov berilgan. Sopol idishlar Tozabog'yob sopollariga o'xshasa-da, Qayroqqum sopollari ichida quloqli, ba'zan esa tarnov jo'mrakli xillari ham uchraydi. Sopol topilmalarining o'ndan bir qismi chizma, taroq iz bilan naqshlangan. Idish gullari o'z xarakteri bilan geometrik kompozitsiyalardan iborat. Qayroqqum madaniyatida metallurgiya hunarmandchiligining yuksak darajada bo'lganligini arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Ko'pgina makonlar ustida olib borilgan qazishmalar paytida oybolta va cho'kich yasaydigan tosh shakllari, ma'dan parchalari, shlaklar va ko'pgina bronza predmetlari topilgan.

B. A.Litvinskiyning yozishicha, 15 ta punktda metall eritish o'choqlari va shlaklar uyumi topilgan. Ayniqsa, madaniy qatlam buzilib ketgan makonlarda, taqir yuzasida ikki tig'li yaproqsimon pichoqlar, xanjar, iskana, qarmoq, igna, bigiz, ikki parrakli bronza paykonlari ko'plab uchraydi.[7; 417]. Bu buyumlar madaniyatning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlaridan guvohlik beradi. Mutaxassislar fikricha, Qayroqqum manzilgohlaridan topilgan kulolchilik idishlari, bronza buyumlari O'rta Osiyoning ushbu davrga oid Andronova, Tozabog'yob madaniyatlari topilmalariga juda o'xshab ketadi. Ana shu o'xshashliklarga asoslangan mutaxassislar ularni Qozog'iston-Sibir topilmalari bilan solishtirib, Qayroqqum yodgorliklari guruhini miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmi – I ming yillikning birinchi va ikkinchi choragi bilan davrlashtirdilar [9; 400].

Andronova madaniyatining yodgorliklari asosan Farg'ona vodiysining janubiy adirlklarida joylashgan. Bu yodgorliklar arxeolog olimlar tomonidan bir necha bor tadqiq etilganligini asarlar orqali ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Farg'ona vodiysi cho'l va dasht qabilalari madaniy xo'jalik faoliyatida chorvachilik dehqonchilikka nisbatan yuksak rivojlangan. Ammo, ular qadimgi Xorazm Tozabog'yob qabilalari singari dehqonchilikda sezilarli xo'jalik taraqqiyotiga ko'tarila bilmagan. Bronza davri cho'l va dasht hududlari qabilalarining madaniyatini S.P.Tolstov va M.A.Itina Xorazmning Tozabog'yob madaniyati deb atasa, Farg'ona vodiysi yodgorliklarini B.A.Litvinskiy "Qayroqqum madaniyati" deb ataydi. A.A.Asqarov esa cho'l va dasht hududi bronza davri yodgorliklarini Andronova madaniyatining Tozabog'yob varianti, Ye.Ye.Kuzmina Andronova madaniyatining O'rta Osiyo qabilalarining madaniy merosi qanday nom bilan aytilishidan qat'i nazar, materiallarining bir-biriga aynan o'xshashligi, xronologik bir davrga tegishli ekanligi masalasida ko'pchilik olimlar bir xil fikrda qolmoqdalar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: O'zbekiston, 2015.

– 680 б.

2. Асқаров А. Ўзбекистон тарихи (Энг қадимги даврлардан эрамининг V асригача). – Т., 1994. Б. 358.
3. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Т.: Университет, 2007. Б.352.
4. Асқаров А. Жўрақулов. Энеолит ва бронза даврида Ўрта Осиё. –Самарқанд, 1984. Б. 254.
5. Эшов Б.Ж. Кўчманчи давлатчилиқ ҳақида айрим мулоҳазалар. ЎЗМУ хабарлари. Махсус сон. – Т.: Университет, 2013. Б. 822.
6. Литвинский Б.А. Кайрак-кумская культура Северного Таджикистана. В.кн.: История таджикского народа. Т.1., - Душанбе, 1998. С. 151.
- Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А. Древности Кайрак-Кумов. – Душанбе. 1962. С. 250-258.
7. Литвинский Б.А., Окладников А.П., Ранов В.А. Древности Кайрак-кумов. – Душанбе, 1962. 262 с.
8. Кляшторный С.Г. Савинов Д.Г. Степные империи Азии, Снб 1994. С. 250.
9. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. – М. – Л. 1962. С. 400.
10. Алохунов А. Фарғона водийсининг Қайроққум маданияти ёдгорликлари. ФарДУ Илмий Хабарлар, 5/2017. Б. 90-92.
11. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида давлатчилиқнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бақтрия мисолида). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Самарқанд, 2009.Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
12. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 1-жилд. А-Бешбалиқ. – Т., 2000. Б. 391.
13. Alokunov A. Thoughts In Regard To Location Of Pastoralists Monuments In Fergana Valley. European Journal of Business & Social Sciences. (EJBSS), Vol-07, Issue-10 July 2019. P. 37-48.